


**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi**

**60310900 – Psixologiya (sport)**  
**bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari**



### **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.

### **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv–uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil “24” 08 dagi 4 -sonli yig‘ilishida ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil “25” 08 dagi 365-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

### **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’limi standartlari. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy–uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	60310900 – <i>Psixologiya (sport)</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi .....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1	60310900 – <i>Psixologiya (sport)</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanishi .....	4
1.1.2.	Malaka talablarning asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	60310900 – <i>Psixologiya (sport)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.....	4
1.2.1.	60310900 – <i>Psixologiya (sport)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	60310900 – <i>Psixologiya (sport)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari .....	5
1.2.3.	60310900 – <i>Psixologiya (sport)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	60310900 – <i>Psixologiya (sport)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari .....	5
2.	60310900 – <i>Psixologiya (sport)</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar .....	9
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	9
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar .....	10
	Bibliografik ma’lumotlar .....	11
	Kelishuv varag‘i.....	12

## **1. 60310900 – Psixologiya (sport) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi**

**60310900 – Psixologiya (sport)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit–modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60310900 – Psixologiya (sport) bakalavriat ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.**

Malaka talabi **60310900 – Psixologiya (sport)** ta'lim yo'nalishi bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarning asosiy foydalanuvchilari:**

– mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv–uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor–o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalar;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari.

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otanalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 60310900 – Psixologiya (sport) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.**

##### **1.2.1. 60310900 – Psixologiya (sport) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60310900 – Psixologiya (sport)** – “Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar” ta'lim sohasida oid yo'nalish bo'lib, shaxsning sport faoliyati yo'nalishida, xulq-atvor va muomalada, ya'ni insonlarning bilish jarayonlari va individual-psixologik xususiyatlari mohiyatini, shaxslararo munosabatlar mexanizmlarini; shaxsni sport jamoasida shakllanish qonuniyatlarini, ya'ni psixika va ongning taraqqiyot bosqichlari, inson roli va mavqeini; insonlar aqliy salohiyati va iqtidori darajalarini bashoratlashni tadqiq etish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. 60310900 – Psixologiya (sport) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:**

- bolalar va o‘smirlar sport maktablari;
- ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari;
- olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari;
- oliy mahorat sport maktablari;
- oliy sport mahorati maktablari;
- respublika oliy sport mahorati maktablari;
- olimpiya zaxiralari kollejlari;
- O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi qoshidagi sportchilarni reabilitatsiya qilish va sog‘lomlashtirish markazi;
- sport federatsiya(uyushma)lari;
- sport klublari va milliy terma jamoalari;
- aholiga (xususiy) psixologik xizmat ko‘rsatish va reabilitatsiya markazlari;
- psixologik–pedagogik tashxis markazlari.

**1.2.3. 60310900 – Psixologiya (sport) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- sport faoliyatida (sport psixologi);
- pedagogik faoliyatida (xalq ta’limi va professional ta’lim tizimi muassasalarida psixologik–pedagogik tashxis markaz vakili – amaliyotchi psixolog);
- ilmiy–tadqiqot faoliyatida;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida;
- sportchilarni reabilitatsiya qilish va sog‘lomlashtirish markazi faoliyatida;
- jismoniy tarbiya va sport–sog‘lomlashtirish markazlari psixologik xizmat faoliyatida;
- tashkiliy–boshqaruv;

**1.2.4. 60310900 – Psixologiya (sport) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

60310900 – Psixologiya (sport) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6–malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

**Sport faoliyatida (sport psixologi):**

- tanlangan sport turlari bo‘yicha psixologik saralashni amalga oshirish;
- sport proforientatsiyasi bilan shug‘ullanish;
- sportchilarning zaruriy psixologik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan akmeologik shartlarni aniqlash;

- sportchining individual xususiyatlarini diagnostikalash va hisobga olish;
- g'alaba uchun zarur bo'lgan psixologik xususiyatlar va ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirish;
- har bir sportchini strategik tayyorlash va qobiliyatini individual rivojlantirish rejasini ishlab chiqish;
- sportchining o'quv–trenerovka, musobaqa oldi, musobaqa jarayonlariga psixologik tayyorgarligini aniqlash;
- musobaqadan keyingi psixologik rehabilitatsiya ishlarini tashkil etish;
- jamoaviy treninglarni o'tkazish (jamoani shakllantirish, jamoaviy jipslik, nizolarni bartaraf etish, jamoani rivojlantirish);
- stresni yechish va bo'shshish bo'yicha mental treninglar va autogen mashqlarni olib borish;
- sport faoliyatiga daxldor xavotir (qo'rquv) va startoldi mandraj (vahima)larini o'rganish;
- inqirozli vaziyatlardan chiqish yo'llarini topish va tiklanish ishlarini tashkil etish;
- sportchilarni kasbiy qayta orientatsiyalash (sport karerasini tugatgan sportchilar bo'yicha).
- bolalar va o'smirlar sport maktablari, ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktablari, olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktablari, oliy mahorat sport maktablari, oliy sport mahorati maktablari, Respublika oliy sport mahorati maktablari, olimpiya zaxiralari kollejlari, sport federatsiya(uyushma)lari, sport klublari va milliy terma jamoalar o'quv–mashq (o'quv–trenerovka, o'quv yig'in) mashg'ulotlarini olib borishda psixologik xizmatni tashkil etish.

**Pedagogik faoliyatida (xalq ta'limi va professional ta'lim tizimi muassasalarida psixologik–pedagogik tashxis markaz vakili – amaliyotchi psixolog):**

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim tizimi muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini samarali va sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot–kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarni kasb–hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirish;
- o'quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb–hunarga moyilliklari asosida to'g'ri kasb–hunar tanlashlariga ko'maklashish;
- turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim–tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish;

– o‘quvchilar ta’lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

– pedagogik jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash, jamoa a‘zolarining hissiy–emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti–harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

– iste’dodli va iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularning individual–psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o‘rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart–sharoitlar yaratish;

– axborot–psixologik xurujlarning xavfi, Internet jahon axborot tarmog‘ining salbiy ta’siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan “ommaviy madaniyat”ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish;

– pedagog xodimlar, o‘quvchilar hamda ota–onalarning psixologik–pedagogik bilimlarini oshirishga ko‘maklashish, pedagog xodimlar, ota–onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta’minlash.

**Mazkur ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilariga quyidagi kvalifikatsiyalar beriladi:**

- sport psixologi;
- amaliyotchi psixolog;
- umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi.

**Ilmiy–tadqiqot faoliyatida:**

– jismoniy tarbiya va sport sohasidagi dolzarb psixologik muammolarni aniqlash;

– jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni kasbiy, ma’naviy–axloqiy saviyasini oshirish, sport ta’lim tizimini ilmiy–metodik ta’minlash, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish;

– jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha ilmiy–tadqiqot ishlari olib borish, yuqori malakali pedagog mutaxassislarni tayyorlash;

– jismoniy tarbiya va sportga oid psixologik ilmiy tekshirishlar bo‘yicha namunaviy usullarda ilmiy–amaliy tadqiqotlar o‘tkazish;

– respublika va xorijda chop etilgan jismoniy tarbiya va sportga oid ilmiy–psixologik axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish hamda ilmiy–tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

– aprobatsiyadan o‘tgan usullarni qo‘llagan holda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatning psixologik jihatdan samaradorligini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqot o‘tkazish;

– matematik–statistika usullari, axborot texnologiyalari yordamida tadqiqot natijalarini qayta ishlash usullaridan foydalana olish, umumlashtirish va xulosalarni shakllantira olish;

– mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy–texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

– ilmiy–tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish;

– internet tarmog'ida sohaga tegishli eng yangi ilmiy, texnologik yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda qidirish va topish;

– ilmiy–tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik profiliga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish.

#### **Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

– ijtimoiy hamda shaxsiy maqom va rivojlanishda yuzaga keluvchi nuqsonlar, shuningdek, sport faoliyatidagi turli kasbiy xavflarning profilaktikasi bo'yicha standart dasturlarni amalga oshira olish;

– vaziyatdan kelib chiqib maqsadlar va respondentlarning kontingentiga mos psixodiyagnostik usullarni tanlab qo'llash hamda olingan ma'lumotlarni matematik–statistik qayta ishlash va to'g'ri talqin qila olish;

– yosh toifasi hamda rivojlanish bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, gender, etnik, kasbiy va boshqa ijtimoiy qatlamlarga mansubligini hisobga olgan holda sportchi psixik faoliyatining o'ziga xos jihatlarini aniqlay olish.

#### **Sportchilarni reabilitatsiya qilish va sog'lomlashtirish markazi faoliyatida:**

– sportchilarning sog'lig'ida o'zgarish bo'lganda psixokorreksion reabilitatsiya tadbirlari (psixozanaliz, individual psixoterapiya, geshtalt terapiya, logoterapiya, tranzakt analiz, shaxs–markazlashgan terapiya, xulq–atvor terapiyasi, kognitiv xulq–atvor terapiyasi)ni tashkil etish va o'tkazish;

– sportchilarning sog'lig'ini tiklashga qaratilgan psixokorreksion tadbirlar (psixodrama, emotsional holatlar psixokorreksiyasi, stres holatlari psixokorreksiyasi)ni tashkil etish va o'tkazish.

#### **Jismoniy tarbiya va sport–sog'lomlashtirish markazlari psixologik xizmat faoliyatida:**

– jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga psixologik to'siq bo'luvchi shug'ullanuvchi yoki sportchi salomatligi bilan bog'liq shart–sharoitlar va omillarni aniqlash;

– sportchilarning tiklanish jarayoni bilan bog'liq ortostatistik sinovlarni psixologik maslahatlarni olib borish;



– davolash muassasalarida, dam olish uylarida, sanatoriyalarda sogʻlomlashtiruvchi psixokorreksion mashgʻulotlar (psixogimnastika, biblioterapiya, art terapiya)ni olib borish;

– sport bilan shugʻullanuvchilarning jismoniy va funksional holatini qayta tiklovchi zamonaviy vosita va usullarni qoʻllash qobiliyatiga ega boʻlishi kerak.

### **Tashkiliy–boshqaruv faoliyatida:**

– rejaviy va hisobot hujjatlarini tuzish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini hamda sport musobaqalarini tashkil qila olish;

– jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat va jamoat boshqaruv organlari hujjatlarini amaliy qoʻllay olish;

– quyi tarkibiy boʻlimlarda tezkor ish rejalarini tuzish va ularning bajarilishini taʼminlay olish;

– bilimlari va mahoratlaridan sifatni taʼminlash va boshqarishda foydalanish;

– ish sifati uchun masʼuliyatni his qilish, oʻz bilimlari va mahoratidan sifatni boshqarish boʻyicha foydalana olish;

– innovatsion gʻoyalardan foydalanishga tayyor boʻlish;

– bolalar va oʻsmirlar sport maktablari, ixtisoslashtirilgan bolalar va oʻsmirlar sport maktablari, olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va oʻsmirlar sport maktablari, oliy mahorat sport maktablari, oliy sport mahorati maktablari, Respublika oliy sport mahorati maktablari, olimpiya zaxiralari kollejlari, sport federatsiya(uyushma)lari, sport klublari va milliy terma jamoalar bilan bogʻliq maʼlumotlarni tahlil qilish va kuzatish;

– boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

– jismoniy tarbiya va sport, sport–sogʻlomlashtirish muassasalari ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

– xizmat koʻrsatish jarayonlarining atrof–muhit muhofazasi, yongʻin, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

– bajarayotgan faoliyati boʻyicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega boʻlishi lozim.

## **2. 60310900 – Psixologiya (sport) taʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qoʻyiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

– dunyoqarash bilan bogʻliq tizimli bilimlarga ega boʻlishi; gumanitar va ijtimoiy–iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

– insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda maʼnaviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;

– axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

– tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

– sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e‘tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

## **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

– ta‘lim yo‘nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

– jismoniy tarbiya va sport sohasidagi g‘oyalarning asosiy oqimlari evolyusiyasining xususiyatlari va tendensiyalari, milliy jismoniy tarbiya va sport sohasi hamda undagi zamonaviy yo‘nalishlar, jismoniy tarbiya va sport salohiyatidan samarali foydalanish muammolari yuzasidan nazariy xulosalar chiqarishi;

– statistika amaliyotida qo‘llaniladigan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ko‘rsatkichlaridan foydalanishni;

– jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil etishi, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish va tartibga solishi hamda aholini, shu jumladan imkoniyati cheklangan aholi qatlamini sog‘lomlashtirishni;

– jahon sporti va xalqaro sport munosabatlari sohasida ma‘lumotlar yig‘ishni tashkillashtirish va ularning sifatini baholashni bilishi;

– rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiyalash va muvofiqlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishni;

– inson tug‘ilishidan hayotining ohirigacha bo‘lgan davrda organizmining rivojlanishi, morfologik, fiziologik va biokimyoviy jarayonlarning psixologik hususiyatlarini bilishni;

– jismoniy tarbiya va sport sohasi tizim tashkilotlari, klublari, jamolarini boshqarishda ishni to‘g‘ri tashkil qilish motivatsiyalashning psixologik hususiyatlar bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishni;

– jismoniy tarbiya va sportga oid munosabatlarda psixologik maslahatlar berish mehanizmini tushunishni;

– sport–sog‘lomlashtirish tizimidagi institutlar faoliyati va uni tashkillashtirilishini ta‘minlashi lozim.

– tegishli bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko‘nikmalari va uquvlarini shakllantirishi.

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kasbiy bilimlar, tanlangan sport turining tibbiy-biologik va psixologik asoslari, sport moshg'uloti nazariyasi, sanitariya-gigienik asoslar, sport turi bilan shug'ullanish motivatsiyasi, individning antropometrik, jismoniy va psixologik xususiyatlari, ommaviy razryadli sportchilar bilan ishlash, bolalar va o'smirlar sporti, sport orientatsiyasi va saralashi tizimi, pedagogik nazorat va korreksiya texnologiyalari, inson jismoniy holatini boshqarish, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari, sport musobaqalari, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat va jaoat boshqaruv organlari, havfsizlik texnikasi, innovatsion g'oyalar, sportchi, jamoa, sport klubi yoki tashkilotiga psixologik yordam, yosh toifasi, rivojlanish bosqichlari, sport-sog'lomlashtirish tizimi.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

**ISHLAB CHIQLDI:**

**O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti**



Rektor

M. Boltabayev

M.O'.

**KELISHILDI:**

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**  
**huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish**  
**tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni**  
**tatbiq etish markazi**



Direktor

M. Esonov

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Turizm va sport vazirligi**



Vazir o'rinbosari

A. Akkulov

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi**  
**vazirligi**  
**Respublika ta'lim markazi**



Direktor

Sh. Sattorov

M.O'.

**O'zbekiston Milliy**  
**Olimpiya Qo'mitasi**



Raisning birinchi  
o'rinbosari

R. Irmatov

M.O'.

**Respublika Olimpiya zahiralari kolleji**



Direktor

A. Mamadaliyev

2022-yil " " "